

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV**

**XO'JALIK VAZIRLIGI**

**SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI**

**Agronomiya fakulteti “5620400 – Qishloq xo'jalik ekinlari urug'chiligi va seleksiyasi” ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi**

**Hayitov Akmalning**

***BITIRUV MALAKAVIY ISHI***

**Mavzu: “Ang'izli yerlarda ekiladigan kungaboqar navlarining hosildorligiga o`stirish sharoitlarining ta`siri ”**

**Ilmiy rahbar: dotsent**

**M.Lukov**

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga qo'yildi:

“Genetika, seleksiya va  
urug'chilik” kafedrası mudiri,  
professor \_\_\_\_\_ I.T.Ergashev

Agronomiya fakulteti dekani,  
dosent \_\_\_\_\_ D.Normurodov  
«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2014 yil

«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2014 yil

№ \_\_\_\_\_ sonli yig'ilishi

**SAMARQAND – 2014**

# Мундарижа

**КИРИШ** .....

**I-bob. Адабиётлар таҳлили**.....

1.1. Kungaboqarning morfo-biologik xususiyatlari.....

1.2. O'zbekistonda kungaboqar ўстиришнинг навлар ва ўстириш шароитларига боғлиқлиги.....

1.3. Мойли кунгабоқарни такрорий экин сифатида ўстиришнинг агротехнологик асослари.....

**II-bob. Самарқанд вилоятининг Булунғур, Ургут ва Окдарё туманларининг тупроқ иқлим шароитлари**.....

2.1. Хўжаликларнинг қисқача таърифи.....

2.2. Хўжалик тупроқининг таърифи.....

2.3. Об-ҳаво шароити.....

**III-bob. Тадқиқотлар қисми**.....

3.1. Битирув малакавий ишининг мақсади, объекти, ўтказиш шароити ва тартиби.....

3.2. Дала тажрибасида ўтказилган агротехник ва уруғчилик ишлари.....

**IV-bob. Тадқиқотлар натижалари**.....

4.1. Турли шароитда анғизли ерда экилган кунгабоқар навларининг ўсиши ва ривожланиши.....

4.1.1. Фенологик кузатишлар натижалари.....

4.1.2. Ҳар хил ўстириш шароитларида кунгабоқар навлари ўсув органларининг шаклланиши.....

4.1.3. Маҳсулдорлик кўрсаткичлари.....

4.1.4. Ҳар хил шароитда анғизли ерда ўстирилган кунгабоқар навларининг хосилдорлиги.....

4.1.5. Ҳосилнинг сифати.....

## **V-bob. Иқтисодий самарадорлик.....**

5.1. Иқтисодий самарадорлик кўрсаткичларининг таҳлил қилиниши.....

5.2. Кунгабоқар иқтисодий самарадорлик курсаткичларининг ўстириш шароитлари ва навларга боғлиқлиги.....

## **VI-bob. Kungaboqar yetishtirishda mehnatni muhofaza qilish.....**

**VII-bob. Мамлакатни модернизация қилиш, кучли фуқоралик жамиятни барпо этишнинг асосий йўналишлари ва устивор вазифалари.....**

**VIII-bob. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasining majlisidagi ma'ruzasidan kelib chiqadigan asosiy vazifalar .....**

Хулосалар ва таклифлар .....

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.....

## **Иловалар**

Ҳосилдорлик маълумотларининг дицперцион анализ усулида ҳисоблаш.....

Интернет маълумотлари.....

Чоп этилган мақолалар.....

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov qishloq xo'jaligida islohotni chuqurlashtirishda seleksiyaning roliga katta ahamiyat berib kelmoqda. Chunki ekinlarning yangi nav va duragaylarini yaratish bilan seleksiya fani shug'ullanadi.

O'zbekistonda kungaboqar ekini katta ahamiyatga ega bo'lib, ishlab chiqarishda uning navlari moy olish, silos tayyorlash va chakish uchun ekilmoqda. Oxirgi yillarda bu qimmatli ekin seleksiyasiga e'tibor bir muncha kamayganligi tufayli mahalliy sharoitda yaratilgan navlarga ega emasmiz /2008/ Abdulkarimov D.T.

Bundan 40 – 50 yil muqaddam O'zbekistonda kungaboqar ekini katta maydonlarda ekilib yuqori hosil olishga erishilgan edi. Hatto lalmikor yerlarda (G'alla orol tumani) ham urug' (pista) ham silos uchun sug'orilmay ekilganda ham yaxshi natijalarga erishilgan. Oxirgi bir necha yildan beri Samarqand qishloq xo'jalik instituti genetika seleksiya va urug'chilik kafedrasida olimlari (dos. M.Lukov va boshqalar) tomonidan kungaboqar ekini seleksiyasi va urug'chiligi sohasida ishlar keng miqyosda olib borilmoqda.

Moyli ekinlardan hozirgi vaqtda ko'p tarqalgan va ahamiyatli kungaboqar hisoblanadi.

Kungaboqar asosiy moyli ekini bo'lib ishlab chiqariladigan o'simlik moyining 75% ni tashkil qiladi. Kungaboqar urug'ining tarkibida 50 – 60% yarim quriydigan sifatli moy va 16% oqsil saqlanadi. Moyining yod soni 119 – 114. Moy ishlab chiqarishda uning qoldiqlari ko'p miqdorda oqsil moddasini saqlaganligi uchun chorva molariga yaxshi qimmatli yem sifatida foydalaniladi. (kunjara, shrot, savatchalarning pahami). Bundan tashqari kungaboqar o'simligi qimmatbaho silos ekinidir.

Jahon dehqonchiligida kungaboqar 2004 yilda 213 mln gektarga ekilib, urug' hosildorligi 8,6 s/ga, yalpi hosili 26,1 mln tonnani tashkil qildi. Uning asosiy maydonlari Rossiya, AQSh, Argentinada joylashgan bo'lib shu bilan birga katta maydonlarda Ruminiya, Bolgariya, Turkiya, Ispaniya, Kanada va boshqa mamlakatlarda, qisman O'zbekistonda ekiladi.

Kungaboqar seleksiyasida geterozis duragaylaridan foydalanish bu ekinning hosildorligi va o'simlik moyini ishlab chiqarishni keskin oshirilishiga olib keldi. Amerika Qo'shma shtatlari va Ruminiyada kungaboqarning duragaylarini ekishga to'lig'icha o'tilgan.

Mustaqil hamdo'stlik mamlakatlarida kungaboqar ko'p tarqalgan mintaqalari – Shimoliy Kavkaz, Ukraina, Moldaviya, Rossiyaning markaziy qoratuproq mintaqasi, Ural Sibir va Kozog'istonning qator viloyatlaridir.

O'zbekistonda kungaboqar ekini katta ahamiyatga ega bo'lib, ishlab chiqarishda uning navlari moy olish, silos tayyorlash va chakish uchun ekilmoqda. Oxirgi yillarda bu qimmatli ekin seleksiyasiga e'tibor bir muncha kamayganligi tufayli mahalliy sharoitda yaratilgan navlarga ega emasmiz. Odatda tezpishar va erta pishar navlar urug'ining hosildorligi bo'yicha o'rtapishar va kechpishar navlarga nisbatan pastroq bo'ladi. Ammo bu biologik qonuniyatni o'zgartirish seleksionerlarning vazifasidir. Tezpishar navlarni yaratishga qaratilgan seleksiyaning O'zbekiston sharoiti uchun, ayniqsa ang'izda kungaboqarni ekib yuqori hosil olish muhim ahamiyatga egadir.

Shularni hisobga olgan holda Genetika, seleksiya va urug'chilik kafedrasida topshirig'iga биннан “Ang'izli yreda ekiladigan kungaboqar navlarining hosildorligiga o'stirish sharoitlarining ta'siri” mavzusida bitiruv malakaviy ishini bajardik.

## **I-bob. Adabiyotlar tahlili.**

### **1.1. Kungaboqarning morfo-biologik xususiyatlari**

Kungaboqarning har qanday navi uning o'suv davrining davomiyligi (tezpisharligi yoki kechpisharligi), poyasining bo'yi, savatcha dimetri kattaligi, savatchadagi urug'larning soni, ularning kattaligi va urug'ining rangiga va boshqa ko'pdan ko'p belgi va hususiyatlarga ko'ra tanlangan duragay populyasiyalar hisoblanadi. Ular bir-biridan irsiy belgilari bilan va fenotipik jihatdan u yoki bu darajada farq qiladigan ko'pdan-ko'p biotiplardan tashkil topgan bo'ladi /1973, 1990/ Pustovoyt V.S.

Kungaboqar nav populyasiyalaridagi biotiplarning bunday murakkab tarkibi ularning ekologik moslanuvchanligi (plastikligi)ni va turli tuproq hamda iqlim sharoitida ham qulay yetishtirish texnologiyasida yuqori hosil beraolishini ta'minlaydi /2003/ Gavrilova V.A, Anisimova I. N. Tezpishar, serhosil, asosiy zambrug' va bakterial kasalliklar va gulli parazitlar (shumg'iya)ga chidamli, urug'ida meva qobig'i (pusti) yupqa, mag'zi to'q, moy miqdori yuqori, uning tarkibi (moy kislotalari va biologik aktiv moddalar) fiziologik muvozanatlangan, past bo'yli, texnik vositalar bilan yig'ib olishga mos nav va duragaylar yaratish hozirgi zamon kungaboqar seleksiyasidagi asosiy yo'nalishlar hisoblanadi /1984, 1988/ Surovikin V.N., Perestova T.A.

Kungaboqar seleksiyasida yangi navlar yaratish dastlab mavjud mahalliy navlardan xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan belgi va hususiyatlariga qarab ommaviy usulda namunalar tanlash hisoblangan. Bunda asosiy e'tibor urug'da moy miqdorining ko'p bo'lishiga qaratilgan /2007/ Abdulkarimov D.T., Lukov M.Q. Shu usul bilan maxalliy navlar yaxshilanib, urug'ida moy miqdori ko'proq navlar yaratilgan. Bunda oilaviy guruxlab tanlashdan keng foydalanilgan va akademik V.S.Pustovoyt tomonidan ishlab chiqilgan zahira usuli ya'ni bo'laklarga bo'lib tanlash, avlodni yakka baholab eng yaxshi avlod va oilalarni bir biri bilan chatishtirib undan olingan avlodlar bo'yicha ham tanlash o'tkazilgan.

Ekiladigan kungaboqar urug'ining to'liqligi darajasiga qarab uch xilga bo'linadi: chaqiladigan, oraliq va moyli. Kungaboqar o'simligining aksariyat turlarining kelib chiqish markazi Shimoliy Amerika xisoblanib, ayrim turlari (qisman) Janubiy Amerikada tarqalgan /2006/ Anarbayev I.U.

Kungaboqar urug'idan moy olish mumkinligi to'g'risida birinchi bo'lib Rossiya fanlar Akademiyasida chop etiladigan "Akademicheskoye izvestiya" da chiqqan (1779 y) "O prigotovlenii masla iz semyan podsolnechnika" degan maqolada aytib o'tiladi. Lekin moyli ekin sifatida dala ekini bo'lib kungaboqar bundan kechroq – 35 yildan keyin foydalaniladi.

Kungaboqarning poyasi yog'ochsimon tik o'sib turuvchi, poyasining usti tukchalar bilan qoplangan, ichi govak parenxima bilan to'la, 1 – 3 m gacha baland bo'yli bo'lib o'sadi. Moyli shakllarning poyalari shoxlanmaydi. Irsiyati resessiv bo'lgan shoxlanuvchi shakllari geterozis seleksiyasida foydalaniladi.

Ekma kungaboqarning navlarining poyasi tik o'suvchi, gullaganda egilmaydigan, shoxlanmaydigan va yoyilmaydigan hamma o'simliklarda bir tekis balandlikda bo'lishi kerak. Kalta bo'ylik poyasining yug'onligini oshishi bilan bog'liq bo'lishi kerak /2005/ Aksimova I.N.

Kungaboqarning barglari yirik, bandli, uzunligi 20 – 40 sm ovalsimon, yuraksimon, uchi o'tkirlashgan, tuk bilan qoplangan. Barglarining cheti tishli. Pastgi 3 – 5 juft barglari poyada qarama – qarshi qolganlari navbatlashgan bo'lib joylashgan. Bitta o'simlikda barglar soni 15 dan 50 tagacha yetadi.

Xar birining shakllanishiga o'rtacha 3 kun talab qilinishi aniqlangan. Ko'pincha seleksion navlarda shakllanadigan 35 bargning hosil bo'lish davri vegetasiya davrining 105 kunini tashkil qiladi. Rivojlanishning optimal sharoitida kungaboqar o'ziga xos (genotipga xos) barglar hosil qilgandan keyin generativ fazaga o'tadi. Shuning uchun o'rta va erta pishar navlar va duragaylar seleksiyasida o'simlikda barglar soni xisobga olinishi kerak /2007/ Amanova A.

Kungaboqar o'simligining har xil yarusida joylashgan barglarning roli har xil. Eng yuqori fotosintetik faollik va oziqa moddalarni (assimiyatlarni) kuchishi, suvlilikning minimal holatda bo'lishini ta'minlaydigan xususiyatli 12 – 15 yarusdan 23 – 25 yarusgacha joylashgan barglar ta'minlaydi. Bu yarumlardagi barglar urug' mag'zida moy biosintezini bajarishda muhim rolni bajaradi /1987/ Pustovoyt V.S.

Kungaboqar o'simligi o'ta kuchli (vegetativ) o'sishi bilan ajralib turadi. O'simlikning “yer usti” qismi biomassasining 25% gacha bo'lgan qismini urug' hosili tashkil qiladi.

Kungaboqarning gul to'plami – savatchadir. Savatcha qavariq yoki botiq, tekis diskasimon, moyli navlarda diametri 15 – 25 sm, chaqiladigan navlarda 45 sm li, bargchalardan iborat bir necha o'rama bilan o'ralgan /1992/ Pustovoyt G. V.

Bir savatchada 2,5 ming tagacha gul joylashadi. Mevasi – pistacha, siqilgan tuxumsimon shaklda, to'rt qirrali. Urug' – yubka urug' po'sti bilan qoplangan mag'iz va mag'ziga yopishmay turadigan terisimon pishiq meva po'stidan iborat. Po'chog'i oq, kul rang, qora yo'l – yo'l yoki yulsiz bo'ladi. Po'chog'i pista vaznining 22–46 % tashkil qildi /2005/ Repina M. V.

Urug'i (mag'iz) – murtak, yupqa urug' po'stidan, murtak esa ildizcha, kurtakcha va ikkita urug' palladan iborat. Kungaboqar o'simligining 1000 dona pistaning vazni 40 – 175 g. nav va duragaylarning 1000 urug'ining vazni 100 g atrofida va naturasi 480 – 550 g/l bo'lishi maqsadga muvofiq.

Kungaboqar chetdan changlanuvchi – entomofil o'simligidir. Asosiy changlatuvchi bo'lib asal ari hisoblanadi.

Undan tashqari katta arilar va boshqa hasharotlar changlatishi mumkin. Shamol yordamida ham changlanadi, lekin chang donachalarining og'irligi tufayli ularning ko'pgina qismi pastga tushib ketadi /2003/ Libenko N.A.

Kungaboqar yuqori ekologik plastiklikka ega. U Shimoliy Amerikaning cho'l mintaqasida havo namligi past ammo, harorat yuqori bo'lgan kontinental iqlim

sharoitida shakllangan. Shuning uchun O'zbekistonda kungaboqarni o'sishi uchun qulay sharoit mavjud. Kungaboqar urug'lari 4 – 5 °S haroratda ko'karib boshlaydi, ammo maysalarning qiyg'os unib chiqishi uchun 10–12 °S harorat qulay. Ekishdan unib chiqishgacha davrda 140–160 °S faol harorat yig'indisi talab qilinadi. Maysalari qisqa muddatli – 8 °S sovuqqa bardosh beradi. Gullash va undan keyinga davrda o'simlikni rivojlanishi uchun qulay harorat 25–27°S . Kungaboqar 1 gektar maydonda 2000–5000 m<sup>3</sup> va undan ortiq suv sarflaydi. Transpirasiya koeffitsiyenti 400 dan 700 gacha, kungaboqar eng ko'p suvni savatchalarni hosil bo'lishi – gullashi davrida (60%), maysalash – savatchalarni hosil bo'lishida 23%, gullash – pishishda 17 % sarflaydi /2007/ M. Q. Lukov

Kungaboqar unumdor, bo'z, o'tloq – bo'z tuproqlarda yaxshi o'sadi. Tuproq reaksiyasi 6–6,8 bo'lganda yaxshi rivojlanadi. Kungaboqar og'ir, loy, qumoq, kislotali, kuchli sho'rlangan tuproqlarda yaxshi o'smaydi. Kungaboqarning ayrim navlari kuchsiz va o'rtacha sho'rlanish sharoitida ham yaxshi hosil beradi (2003 D.T.Abdukarimov, M.K.Lukov,)

Kungaboqar yorug'sevar, qisqa kun o'simligi, oziqa moddalariga talabchan, ayniqsa kaliyni ko'p o'zlashtiradi. 1 s urug' va shunga muvofiq o'suv organlarini hosil qilish uchun tuproqdan 6 kg azot, 2 kg fosfor va 10 kg kaliyni o'zlashtiradi.

## **1.2. O'zbekistonda kungaboqar ўстиришнинг navlar va ўстириш sharoitlariga boғliqligi**

Xar xil tuproq iqlim sharoiti uchun u yerdagi issiqlik, suv bilan ta'minlanganlik darajasi va hosilni yig'ib olish davrida ob – havo va boshqa sharoitlar xisobiga olinib vegetasiya davrining optimal davomiyligi belgilanadi. O'zbekiston sharoitida vegetasiya davrining davomiyligi katta ahamiyatga ega, chunki bizning sharoitimizda bir yilda ikki hosil olish imkoniyatlari mavjud. Ayniqsa ang'izda ikkinchi ekin sifatida ekib hosil yetishtirish uchun kungaboqarning tezpishar navlaridan foydalaniladi. Akademik V.S.Pustovoyt /1986/ fikricha Kuban sharoiti uchun bu davr 92 – 95 kun bo'lsa qulay. Juda erta pishar navlar seleksiyasi mahsuldorlikni pasayishiga olib kelishi mumkin.

/1984/ A.B.Dyakovning ma'lumotlariga ko'ra vegetasiya davrini 12 – 15 kunga qisqarishi hosildorlikni 20 – 30% ga kamaytirilishiga olib keladi. Qulay sharoitda har bir kunda gektariga 30 kg gacha moy to'planadi.

1. Yuqori mahsuldor ertapishar nav va duragaylarni yaratilishi o'simliklarni bir vaqtda pishishi, fiziologik pishishdan to'liq pishishgacha qisqa davrli genotiplarni tanlash va savatchalari tezlikda (qisqa davrda) quriydigan o'simliklarni tanlash usullari bilan yaratishga erishish mumkin. Kungaboqarning effektiv haroratining pastki ko'rsatkichi  $5^{\circ}\text{S}$  ga teng (biologik nol) bo'lib, unib chiqish – shonalash davrida  $11 - 12^{\circ}\text{S}$ , shonalash – gullashda  $15 - 16^{\circ}\text{S}$  undan keyingi davrda esa harorat  $10 - 14^{\circ}\text{S}$  qulay bo'lib hisoblanadi /1998/Borisonik Z.B.

Rossiya moyli ekinlar ilmiy tadqiqot institutida erta muddatda unib chiqish, tezpisharlik xususiyatli seleksion materialni tanlash sxemasi va baholash uslubi ishlab chiqilib kuzgi – qishgi – bahorgi davrda o'stirish maqsadida fitotronlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Vegetasiya davrining davomiyligiga qarab kungaboqar navlari uch guruhga bo'linadi:

1. O'rtapishar navlar – vegetasiya davri 92 – 132 kun. Bu guruhga

Armavires, Yenisey, Nadejnyy, Salyut, trudovik navlari kiradi:

Erta pishar navlar, vegetasiya davri 80 – 120 kun. Bu guruhga Vosxod, Zorya, Zenit, Gibrid Pochin, VNIIMK 8931 navlari kiradi.

Tezpishar navlar, vegetasiya davri 70 – 100 kun. Bu guruhga Peredovik uluchshyennyi, Smena, Mayak uluchshyennyi navi O'zbekistonda silos va yashil massasi uchun ekiladi /1994/ Tkalich I.D.

Ayrim mualliflar (G.V.Gulyayev, 1975 y) moyli kungaboqar navlarini quyidagi guruhlarga bo'ladilar:

– O'ta tezpishar navlar – 60 – 69 kun, tezpishar navlar – 70 – 79 kun, ertapishar navlar – 80 – 89 kun, o'rtapishar navlar 90 – 99 kun, kechpishar navlar – 100 – 109 kun va o'ta kechpishar navlar 110 va undan ko'p kun talab qiladigan navlar.

Odatda tezpishar va erta pishar navlar urug'ining hosildorligi bo'yicha o'rtapishar va kechpishar navlarga nisbatan pastroq bo'ladi. Ammo bu biologik qonuniyatni o'zgartirish seleksionerlarning vazifasidir. Tezpishar navlarni yaratishga qaratilgan seleksiyaning O'zbekiston sharoiti uchun, ayniqsa ang'izda kungaboqarni ekib yuqori hosil olish muhim ahamiyatga egadir. Ertapishar navlarni yaratish seleksiyasida asosiy brak qilish ishlari gullash davrida o'tkazilib hamma kech gullaydigan o'simliklarni chiqarib tashlash bilan bajariladi /2007/ Lukov M. Q.

O'zbekistonda qishloq xo'jalik ekinlari, jumladan kungaboqar 3 xil mintaqa sharoitida ekishga tavsiya etiladi. Bular Markaziy, Janubiy va Shimoliy mintaqalardir.

Markaziy mintaqaga Toshkent, Sirdaryo, Samarqand va farg'ona vodiysi viloyatlari, shimoliy mintaqaga Qoraqalpog'iston va Xorazm, janubiy mintaqaga Qashqadaryo, Surxondaryo va Buxoro viloyatlari hududlari kiradi. Shu bilan birga har bir mintaqaning Markaziy, Janubiy va Shimoliy hududlari bo'ladi. Masalan,

Surxondaryo viloyatining janubida Termizga nisbatan markaziy hududi Jarqo'rg'on va Qumqo'rg'on tumani hududlari iqlimi yozda 1-2S , qishda -2S sovuq , shimoliy hududi Sariosiyo va Uzun yozda 2-3S iliq, qishda -3S sovuqligi bilan farq qiladi /2007/ Lukov M. Q.

Moyli kungaboqarning yangi navlarini ekishga tavsiya etishda albatta uning o'stirish sharoiti, iqlim sharoiti hisobga olinadi. Kungaboqar navlari o'suv davri davomiyligiga qarab o'ta tezpishar, tezpishar, o'rtapishar va kechpishar navlarga bo'linadi.

O'ta tezpishar va tezpishar navlar shimoliy mintaqa sharoiti uchun ekishga tavsiya etilsa, o'rtapishar navlar markaziy mintaqa uchun, kechpishar navlar janubiy mintaqa sharoitlari uchun tavsiya etiladi /2008/ Anarbayev I.U.

O'ta tezpishar navlarning o'suv davri davomiyligi 70 kuni tashkil qiladi. Masalan, Sur navi Butun Rossiya Moyli ekinlar ilmiy tadqiqot institutida yaratilgan bo'lib, "Super ultra ranniy" degan ma'noni bildiradi. Tezpishar navlarga Rodnik (78 kun), Kruey (79 kun), ertapishar navlarning o'suv davri davomiyligi 80-85 kun bo'lib, bu navlarga Nadejniy, Salyut, Baguchares, Jaxongir navlari, Krasotka va Sambred 264 duragaylari misol bo'ladi. O'rtapishar navlarning o'suv davri davomiyligi 90-100 kun bo'lib, ularga Peredovik, VNIIMK- 89-31, Lakomka, Lider, Favorit navlari misol bo'ladi. Kechpishar navlarga (o'suv davri 120 kundan ziyod) Donskiy 60 va boshqa bir qator navlar misol bo'ladi /2007/ Lukov M. Q.

Respublikamiz sharoitida g'o'za va boshqoli don ekinlari asosiy maydonlarni egallagan bo'lib, moyli kungaboqarni ertangi boshqoli don ekinlaridan bo'shagan yerlarga ekish mumkin bo'lganligi uchun kungaboqar seleksiyasining asosiy yo'nalishi o'suv davri davomiyligining qisqa bo'lishiga qaratilgan seleksiya bo'lib, uning vazifasi tezpishar navlar yaratishdir /2009/ Yormatova D.Yo.

O'zbekistonda har yili boshqoli don ekinlaridan bo'shagan 1.1-1.2 million gektar yerda kungaboqar o'stirishga katta imkoniyat tug'iladi. Takroriy ekin

sifatida esa asosan tezpishar navlar ekish tavsiya etiladi. O'rtapishar va kechpishar navlar takroriy ekin sifatida ekilganda kuzda pishish fazasi to'liq o'tmay, hosilning bir qismi puch bo'lib qolishi kuzatilsa, ikkinchidan hosilni yig'ishtirishda isrofgarchilikka olib keladi. Shularni hisobga olib O'zbekistonda tezpishar navlarni yaratish hozirgi kunning asosiy muammolaridan biridir /2008/ Anarbayev I.U.

O'zbekistonda tezpishar navlarni o'stirish qo'yidagi afzalliklarga ega. Birinchidan, respublikamizning barcha mintaqalari uchun kungaboqarni boshoqli don ekinlaridan bo'shagan yer ang'izga ekib o'stirish imkoniyati yaratiladi.

Ikkinchidan, kungaboqardan moy olish maqsadida lalmikor sharoitda o'stirish imkoni tug'iladi. Chunki lalmikorlikda o'ta tez pishar va tezpishar navlarni ekish maqsadga muvofiq. Lalmikorlikning tog'li va tog' oldi mintakalarida kungaboqar aprel oyining oxirgi o'n kunligida ekiladi. Nihollar iyun oyining birinchi o'n kunligida gullash fazasini o'taydi. Iyul oyining uchunchi un kunligida pishish fazasiga o'tishga ulguradi. Agar o'rta pishar va kech pishar xamda baland poyali navlar ekilsa avgust oyida kungaboqarning hosili pishib yetilmaydi /2008/ Lukov M. Q.

Uchinchidan, /2009-2010/ M.Q Lukov ma'lumotlarida ko'rsatilishicha Respublikamizning janubi bulib hisoblagan Surxandaryo viloyatida tez pishar navlardan bir yilda ikki urug' hosili olish mumkin. Yozda yitishtirilgan yangi hosil urug' sifatida qayta ekilganda 25-28 s/ga gacha xosil yitishtiriladi. Kungaboqar seleksiyasi va urug'chiligida bunday tadbirlarni amalga oshirish juda katta amaliy ahamiyatga ega bo'lib yangi nav va duragaylarni kungaboqarning elita urug'ini yitishtirish jarayonini ikki marta tezlashtiradi .

Kungaboqar tezpishar navlarini yaratish uchun o'suv davri davomiyligini baholash muhim ahamiyatga ega. Kungaboqar o'suv davri davomiyligini baholash, O'zbekiston O'simlikshunoslik Ilmiy Tadqiqot Inistitutida Amanova va Rustamovlar tomonidan tuzilgan uslubda o'tkaziladi. Buning uchun fenologik kuzatish jadvallari tuzilib, jadvalga namunaning nomlanishi, kelib chiqishi, katalog raqami, keyingi ustunda ekish muddati, maysalash, ikki juft chin barg hosil

bo'lishi, savatcha (yulduzcha) hosil bo'lishi va pishish fazalari yozib boriladi. Ta'kidlash joizki, oldingi kuzatuvlar olib borishda paykalchadagi o'simliklarning umumiy soniga qarab ma'lumotlar belgilangan bo'lsa, yangi uslubda rivojlanish fazalarininig sodir bo'lishi, tanlangan 10 yoki 20 o'simlikning har biri bo'yicha o'tkaziladi /2006/ Atabayeva X. N.

Faza deb – ekilgan urug' unib chiqqandan so'ng, nirholda har bir organning paydo bo'lishi va shakillanishiga ytiladi. Fazalararo davri deb – bir fazadan ikkinchi fazagacha o'tgan davrga aytiladi. Masalan, gullashdan pishishgacha bo'lgan davr. O'suv davri davomiyligi deb – maysalashdan pishishgacha bo'lgan davrga aytiladi /2004/ Amanova A.

### **1.3 Мойли кунгабоқарни такрорий экин сифатида ўстиришнинг агротехнологик асослари**

Кунгабоқар, ер юзида мойли экинлар орасида хом-ашёси ва мойнинг сифатлилиги бўйича энг олдинги сафда туради. Унинг уруғида сақланадиган (55 % гача) мой, табиий тоза ҳисобланади. Бу мойни истеъмолда фойдаланиш учун доғламаса ҳам бўлади.

Ўсимлик мойини кўпайтиришнинг осон ва самарали усули, бошоқли дон экинларининг ҳосили йиғиштирилгандан кейин, бўшаган жой (анқғиз)да кунгабоқарни такрорий экин сифатида экиб ўстиришдир.

Тадқиқ қилинган (2001-2012 йиллар) маълумотларимиз кўрсатишича Республикаимизнинг суғориладиган шароитида ҳар йили 1,1-1,2 млн. га. бошоқли дон экинлардан бўшаган ер (анғғиз)да кунгабоқарнинг тезпишар, серҳосил навларининг ёзда атиги 6-8 кг уруғини экиб, қисқа муддат (75-85 кун) давомида гектаридан 2,5-2,8 тонна уруғ ҳосил етиштириш мумкин

Такрорий экин сифатида ўстириладиган мойли кунгабоқардан юқори ҳосилдорликка эришиш учун нав омили, экиш муддати, уруғнинг сифатлилиги, туп қалинлиги, ўғитлаш, суғориш, қўшимча чанглатиш ва

ҳосилни йиғиштириш каби агротехнологик ва ташкилий тадбирларни илмий асосланган тавсияга асосан ўтказиш мақсадга мувофиқ.

Такрорий экин сифатида ўстириладиган навларининг ўсув даврини ҳисобга олмасдан, уруғликни (20-25 июлгача) кечиктириб экилса, уларнинг гуллаш фазаси сентябрь ойининг иккинчи ва учинчи ўн кунлигига мос келади. Бу пайтлар ҳозирги кунларга нисбатан қуёшли кунлар беш соатгача қисқаради, ҳарорат пасаяди. Булутли кунларнинг содир бўлиши, шудринг тушиш ҳолатлари кузатилади. Қуёшсевар кунгабоқарнинг гуллаш жараёнига бундай ноқулай шароит салбий таъсир кўрсатади. Бу шароитда фотосинтез жараёнининг нормал кечмаслиги кузатилса, иккинчи томондан кунгабоқарни чанглатувчи асалариларнинг фаолияти мутлоқо сустлашиб уруғлар чангланмасдан бир қисми пуч бўлиб қолади. Энг асосийси ҳосилнинг пишиш фазаси тўлиқ кузатилмайди ва уни йиғиштиришда катта исрофгарчиликка йўл қўйилади. Шуларни ҳисобга олган ҳолда, такрорий экиладиган кунгабоқарнинг экиш муддатини Республикаимизнинг жанубий вилоятлари учун 10 июль, марказий вилоятлари учун 1 июль ва шимолий минтақа шароити учун 25 июндан кечиктирмасдан экишни тавсия этамиз.

Такрорий экин сифатида кунгабоқар ўстиришнинг, асосий вазифаларидан бири анғизни тезда ва сифатли экишга тайёрлашдир. Бошоқли дон экинларидан бўшаган ерни тайёрлаш учун, ер анғиз қолдиқларидан тозаланади. Экиш муддатини ҳисобга олган ҳолда дала суғорилиб бегона ўтлар ва бошоқли дон экинлар уруғларидан ҳосил бўладиган майса (ғўдра) ундириб олиниб ва уларни йўқотиб ташлаш учун ер 20-25 см чуқурликда ишланади. Ерни текислаш учун мола тортилади.

Кунгабоқарнинг юқори сифатли уруғлиги 20-25% қўшимча ҳосилдорликни таъминлайди. Уруғнинг сифати наводорлиги бўйича 1 категорияли- типиклиги 99,8 %, қалқондорлиги 98 %. Экинбоплик сифатларига кўра 1- синфга оид - тозаллиги 99 %, унувчанлик 95 % дан кам бўлмаган уруғлар экилганда, 5-7 кундан сўнг майсалар бир текис униб чиқади ва бир хил текисликда ўсади. Турли касалликлардан ҳоли бўлиш учун

уруғлар экиш олдидан витавакс 200 FF, байлетон, фундозал ва паноктин препаратлари билан бир тонна уруғга 2-3 кг. миқдорда ишлаш тавсия этилади.

Кунгабоқарнинг уруғи қатор оралари 70 см кенгликда, механик таркиби оғир тупроқларда 5-6 см. чуқурликда экилади. Экиш СУПИ-8, СКПИ-12, СПЧ-6М сеялкаларида бажарилади. Экишга тавсия этилган кунгабоқар навларининг морфологик (поя баландлиги, барг банди узунлиги, барг сатҳи йириклиги) органлари шаклланишига боғлиқ ҳолда Жаҳонгир, Пионер, Богучарец, Сур, Родник, Душко навларини 70x25 см. схемада гектарига 57,1 минг туп, Лучаферул, Дукат, Санбред-254 дурагайларини 70x30 см. схемада экиб, майсалаш фазасидан сўнг ягоналаш ўтказиб, битта уяда битта ўсимлик қолдириш, гектарига 47,6 минг туп ҳисобида ўсимлик ўстириш мақсадга мувофиқ.

Кунгабоқар озиқ моддаларга талабчан экин. Бундан ташқари такрорий экин сифатида экиладиган кунгабоқар учун ўтмишдош эртаги буғдой ёки арпа ердан катта миқдорда озиқ моддаларни ўзлаштиради. Шуларни ҳисобга олганда такрорий экиладиган кунгабоқарни ўғитлашда экиш олди ва парваришlash даврида минерал ўғитлардан фойдаланиш қоидаларига тўғри риоя қилиш зарур.

Самарқанд вилоятининг Тайлоқ ва Оқдарё туманларидаги типик бўз тупроқли ерларида ўрганилган маълумотлар натижаларига асосан: Анғизда кузги бошоқли дон экинларининг қолдиқлари тозалангандан сўнг, гектарига 15-20 т. чириган гўнг, маъданли ўғитлардан соф ҳолда азот-200 кг., фосфор-145 кг., калий-200 кг. қўллашни тавсия этамиз. Шунингдек уруғни экишдан олдин фосфорлик ва калийлик ўғитларнинг йиллик меъёри тўлиғича қўлланилади. Азотлик ўғит йиллик меъёрининг: 20 % қисми, уруғни экиш билан биргаликда, 30 % қисми майсалар тўлиқ униб чиққач ва ягоналаш ўтказилгандан кейин, қолган 50 % қисми саватча ҳосил қилиш фазаси

бошланиши (поянинг ўсув нуқтасида юлдузча шаклида саватча ҳосил бўла бошлайди) билан қўлланилади.

Экилган уруғлардан майсалар тўлиқ ўниб чиққач парваришлаш ишларига қаттиқ риоя қилиш зарур. Парваришлашда дастлабки иш ягоналаш ўтказилгандан сўнгселка ёрдамида қатор ораларига ишлов берилади. Ишлов беришда унинг чуқурлигига алоҳида аҳамият бериш шарт.

Культивация ишчи органларининг чуқурлиги, механик таркиби енгил тупроқли ерларда.- биринчи культивация икки жуфт чин барг пайдо бўлиш даврида 6-8 см чуқурликда., иккинчи культивация тўрт жуфт чин барг ҳосил бўлиш даврида 8-10 см., учинчиси ўсимликнинг ўсув нуқтасида юлдузча пайдо бўлиши билан 10-12 см чуқурликда ўтказилади. Механик таркиби оғир тупроқли ерларда - биринчи культивация икки жуфт чин барг пайдо бўлиш даврида 8-10 см чуқурликда., иккинчи культивация тўрт жуфт чин барг ҳосил бўлиш даврида 11-12 см., учинчиси ўсимликнинг ўсув нуқтасида юлдузча пайдо бўлиши билан 13-14 см чуқурликда ўтказилади. Қатор ораларига ишлов бериш саватча ҳосил қилиш фазаси бошланиши билан тўхтатилади.. Кунгабоқар суғоришга, намликка талабчан экин. Кунгабоқарни юқори агрофонда ўстириш ва тупроқ намлигини дала нам сифимига нисбатан 70-75-70 % бўлишини таъминлаш асосида ҳосилдорлик 20-25 % ошади.

Суғоришлар сони, сизот сувларининг жойлашиш чуқурлигига боғлиқ ҳолда 3 мартадан 5 мартагача ўзгариши мумкин. Бошоқли донли экинлар йиғиштирилгандан сўнг такрорий экин сифатида уруғларни экишгача дала кичик 600-700 м<sup>3</sup>га меъёрда суғорилади. Ўрганилган маълумотларнинг кўрсатишича кучсиз ва ўртacha даражада шўрланган ерларни суғориш учун, суғориш сонини кўпайтириш ёки уруғлар униб чиққунча 1 марта 350-400 м<sup>3</sup>, майсалаш фазасида 1 марта 400-450 м<sup>3</sup>га, Саватча ҳосил қилиш даврида 1 марта 500-600 м<sup>3</sup>га, гуллаш даврида 1 марта 600-700 м<sup>3</sup>, пишиш даврида 1 марта 600-700 м<sup>3</sup>га меъёрда тез-тез суғориш туфайли, тупроқ юзасидаги осон

эрийдиган зарарли тузлар ювилади, натижада пайкалдаги туп сонларнинг тўлиқ ривожланиши кузатилади.

Кунгабоқар четдан чангланадиган (энтомофиль) ўсимлик. Бу экин табиий ҳолатда асосан (95%) асаларилар ёрдамида чангланади, сўнг уруғланади. Қолган 5% қисми зарарли ҳашоратлар иштирокида чангланади.

Тайлоқ туманининг Улуғбек ММТП хўжалигида 2008-2011 йиллар ўрганилган маълумотлар кўрсатишича такрорий экилган кунгабоқарнинг Самбрел-254 ва Красотка дурагайларини гуллаш фазасида, қўшимча чанглатилганда, чанглатилмаганга нисбатан, саватчанинг диаметри 2 см. гача йириклашди. Чанглатиш таъсирида саватчанинг ўрта қисмидаги, мағзи тўқ писталар миқдори (60, 3 %)га нисбатан 91,4-97,7 % гача ортди. Саватчанинг ўрта уруғсиз бўш қисми деярлик бўлмайди. Шунингдек саватчанинг юзаси текис, писталарнинг йирик ва бир хил бўлиши кузатилди.

Такрорий экин сифатида ўстирилган кунгабоқар ҳосилини исрофгарчилик қилмасдан йиғиштириб олиш муҳим тадбирлардан ҳисобланади.

Кунгабоқарнинг ҳосили экинзорда саватчаларнинг орқа томони 90 % сариқ-кўнғир, кўнғир тусга кириб, уруғ намлиги 12-14 % етганда ҳосил йиғиштиришга киришилади.

Уруғларнинг бир текис етилишини таъминлаш учун гуллашдан кейин 40-45 кун ўтгач, уруғлар намлиги 30-35 % етганда 20 кг/га меъёрида хлорат магнийни десикант сифатида 100 л. сувга аралаштириб қўллаш яхши натижа беради. Бунда десикация ўтказилгандан кейин 10-15 кун ўтгач, уруғларни намлиги 12-16% га камаяди. Десикант сифатида реглонни 3 кг/га меъёрида қўллаш мақсадга мувофиқ. Бунда уруғлардаги намлик 10-12 % дан ортик бўлмаслиги талаб қилинади. Ҳосилни йиғиштириш ПНП-1,5 махсус мослама билан жиҳозланган СК-5 «Нива» ёки «Кейс» комбайнларида ўтказилади. ПСП-1,5 мосламаси билан жиҳозланган комбайн саватчаларни қирқади,

янчади, уруғларни бункерда тўплайди, пояларни 10-12 см баландликда қирқиб 15 см майдалаб, далага сочиб ташлайди.

Янчиб олган уруғлар ОВП-20 русумли машиналарда тозаланади ва кейин дон тозалайдиган ОС-4,5 А, ЗАВ-20, ЗАВ-40 ёки Петкус-гигант машиналаридан ўтказилади. Сақланаётган уруғларни намлик даражаси 7% дан ошиқ бўлмаган ҳолда 1м қалинликда сақланади. Халталарда сақланса намлик 8-10 %, техник мақсадларда ишлатиладиган уруғлардаги намлик 10-12% дан ортиқ бўлмаслиги керак.

## **II-Боб. Самарқанд вилоятининг Булунгур, Ургут ва Оқдарё туманларининг тупроқ иқлим шароитлари**

### **2.1. Хўжаликларнинг қисқача таърифи.**

Булунгур туманининг «Бахтиёр Ҳайитов» фермер хўжалиги йирик хўжаликлардан бири ҳисобланади. Бу хўжалик Булунгур туманининг маркази 8-10 км, Самарқанд шаҳридан 35-40 км узоқликда жойлашган. Хўжалик рельефи тикисликдан иборат, умумий ер майдони 21 гектар. Шундан қишлоқ хўжалигига яроқли ерлар 21 гектарни ташкил этади. Хўжалик асосан боғдорчилик, мева сабзавотчилик ва ғалла дон маҳсулотлари ишлаб чиқаришга ихтисослашган. Бошоқли дон экинлари 7 гектардан иборат бўлиб, 33.33 фоизни ташкил этади. Бундан ташқари 3 гектарга сабзавот экинлари помидор, пиёз ва балгар қалампери экилади. 8 гектар узумзор, 2.5 гектар олмазор, 0,5 гектарга мойли кунгабоқар ўстирилди.

2012 ва 2013 йилларда мойли кунгабоқарнинг СамҚХИ 20-80 истиқболли нави такрорий экин сифатида экилиб гектаридан ўртача 26-28 центнер ҳосил етиштирилди.

Оқдарё тумани чоржуй қишлоғида Самарқанд қишлоқ хўжалиги институти ўқув тажриба хўжалигида Шнститутолимлари билан анғизли ерда кунгабоқар наи намуналари экилиб келинмоқда. Бу хўжалик зарафшон дарёсига яқинлиги сабабли Булунгур туманига нисбатан 1-3<sup>0</sup> га кузда салқин бўлиши билан фарқланади. Бундан ташқари сизот суви метр жойлашганюдарё яқинлиги сабабли суғориладиган ерларида йирик йирик тошлар кўп, бу ўз навбатида дэхқончилик ишлариги яний чопиқиа агротехника ишларига қийинчиликлар туғдиради. Тупроқ банитети 36-37. Сам ҚХИ ўқув тажриба хўжалиги умумий майдони 45 гани ташкил этади.

Ургут туманидаги Бахрин фермер хўжалиги умумий майдони 100 гани ташкил этади. Бахрин фермер хўжалиги тоғолди мимтақада жойлашган. Бу худудда ёмғир ёққандан сўнг тезқатқолоқ бўлиб қолади. Бахрин фермер

хўжалиги тоғ олди мимтақада жойлашганлиги учун Булунғур тумани хатто Оқдарё туманидан ҳам 1-2<sup>0</sup> га салқин. лекин шундайбўлсада Ургут, Оқдарё ва Булунғур туманларида анғизли ерларга иккинчи экин экишга рухсат этилган.

## **2.2. Хўжалик тупроқининг таърифи.**

Булунғур туманининг «Бахтиёр Ҳайитов» фермер хўжалиги ерларининг тупроғи ўтлоқи бўз тупроқ ва оч тусли бўз тупроқлардан иборат. Қишлоқ хўжалигига яроқли ерларнинг асосий (77,3 %) қисми ўтлоқи бўз тупроқ тупроқлар ҳисобланади.

Биз тажриба ўтказган майдоннинг тупроқлари эскидан суғорилиб келинадиган ўтлоқи бўз тупроқлар бўлиб, механик таркиби ўрта қумоқ, сизот сувининг чуқурлик сатҳи 7-9 метр. Ҳайдов қатлами ҳажми массаси 1,31-1,34 г-см<sup>3</sup>, коваклик даражаси 30-35% га тенг.

Тупроқ таркибидаги гумус миқдори 1,0-1,1%, гумус қатлами эса 30-40 см ни ташкил этади. Озиқ элементарини кам сақлаши билан характерланади. Ялпи азот хайдалма қатламида 0,10-0,14%, фосфар 0,20-0,27%, калий 2,2-2,4% бор. Ҳайдалма қатламда тупроқ эритмасининг реалқциясига кучсиз ишқорий (РН-7,3-7,4).

Тажриба участкаси тупроқлари физик ва кимёвий хусусиятлари жиҳатдан экинлари экиб ўстиришга яроқлидир. Хўжалик денгиз сатҳидан 790 метр баландликда жойлашган.

Биз тажриба ўтказган майдон тупроқларнинг агрокимёвий таърифи 2-жадвалда батафсил баён этилган. Жадвалдаги маълумотлардан маълум бўлишича тажриба майдон тупроқларда 0-30 қатламида чириндининг миқдори 1,10 %, ялпи азот 0,12 % – ҳаракатчан нитрат азоти 1,0 мг/кг, фосфор 0,27 % – ҳаракатчан P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> – 27,8 мг/кг, ялпи калий 2,3% алмашинувчан калий – 210 мг/кг ни ташкил этади. Тупроқнинг чуқурроқ 30-50 см қатламларда эса чириндининг миқдори 0,70 %, ялпи азот 0,06 % –

ҳаракатчан нитрат азоти 6,9 мг/кг, фосфор 0,58% – ҳаракатчан P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> – 18,2 мг/кг, ялпи калий 169 % алмашинувчан калий – 184 мг/кг ни ташкил этади.

**1-жадвал**

### **Тажриба майдонининг агрокимёвий таърифи**

**(2012-2013 й)**

Қатлам, см	Чиринди, %	Ялпи, %			Ҳаракатчан элементлар мг/кг ҳисобида		
		азот	фосфор	калий	нитрат азоти	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub>	K <sub>2</sub> O
0-30	1,10	0,12	0,27	2,3	1,0	27,8	210
30-50	0,70	0,06	0,58	169	6,9	18,2	184

### **2.3. Об-ҳаво шароити.**

Булунғур туманидаги «Бахтиёр Ҳайитов» фермер хўжалиги иқлим шароити бўйича ёз фаслининг июль ойида иссиқ ҳаво ҳарорати (ўртача 27,0 °С), қишда январ ойида энг совуқ (ўртача 3,5 °С) кунлар бўлиши кузатилади. Ёғингарчилик 2012 йилда қиш, баҳор ойларида кўп кузатилган, ёзда июль ойида мутлақо ёғингарчилик кузатилмаган ва куз ойларида ёғингарчилик кам миқдорда бўлсада содир бўлган. Умуман олганда бу хўжаликнинг тупроқ иқлим шароити кунгабоқарнинг ўсиб, ривожланиши ва юқори ҳосил етиштириш учун қулай ҳисобланади.

Тажриба ўтказган 2012 йилдаги об-ҳаво шароитларини таҳлил қилиш шуни кўрсатдики, шу йилда ёғингарчилик миқдори ўртача йиллик ёғин миқдоридан ортиқ бўлган, бу эса кўпгина қишлоқ хўжалик экинларининг, жумладан кунгабоқарнинг ҳам ўсиш ва ривожланишига ижобий таъсир

кўрсатди. Демак, Булунғур тумани об-ҳаво шароити суғориладиган ерларида кунгабоқар экиннинг касаллик ва зарақунандаларига чидамли юқори ҳосилли навлари ва гетрозисли дурагайларини экиб, уни парваришда юқори агротехник жараёнларни сифатли ва ўз вақтида қўллаб, ундан юқори ҳамда сифатли уруғ ва товар ҳосил олиш имкони мавжуд.

Тажриба ўтказилган жойининг иқлим шароитлари

## Самарқанд гидрометеорология бошқармаси маълумотлари

Ўртача ҳаво ҳарорати, °С													
Йил	январ	феврал	март	апрел	май	июн	июль	август	сентябр	октябр	ноябр	декабр	Ўртача йил. ҳарорат °С
2010	3,5	6,5	11,0	13,3	20,8	24,2	27,0	25,5	21,1	16,8			
Атмосфера ёғинлари, мм													
Йил	январ	феврал	март	апрел	май	июн	июль	август	сентябр	октябр	ноябр	декабр	Ўртача йил. ҳарорат °С
2010	20,6	53,4	51,2	92,0	36,4	13,1	0,0	1,5	0,5	0,8			
Ҳавонинг ўртача нисбий намлиги, %													
Йил	январ	феврал	март	апрел	май	июн	июль	август	сентябр	октябр	ноябр	декабр	Ўртача йил. ҳарорат °С
2010	80,4	77,5	73,3	68,5	64,4	50,2	44,4	52,5	58,4	64,0			

## **III-боб. ТАДҚИҚОТЛАР ҚИСМИ**

### **3.1. Битирув малакавий ишининг мақсади, объекти, ўтказиш шароити ва тартиби**

Битирув малакавий ишини бажаришдан мақсад Самарқанд вилоятининг Булунғур, Оқдарё ва Ургут туманлари шароитида бошоқли дон экинларидан анғизли ерда кунгабоқар ҳар хил навларининг ўсиш ривожланишини ўрганиш асосида юқори ва сифатли ҳосилдорликни таъминлайдиган ўстириш шароитини ўрганишдан иборат.

Битирув малакавий ишида қуйидаги вазифалар қўйилди:

1. Самарқанд вилоятининг Булунғур, Оқдарё ва Ургут туманлари шароитида бошоқли дон экинларидан бўшаган ерларда экилган кунгабоқар ҳар хил навларининг ўсиш ривожланишини ўрганиш;
2. Ҳар хил ўстириш шароитларида анғизли ерда ўстирилган кунгабоқар навларининг ҳосилдорлиги ва ҳосилининг сифатини яхшилаш;
3. Ҳар хил ўстириш шароитида анғизли ерда ўстириш асосида юқори иқтисодий самарадорликка эга ўстириш шароитини аниқлаш;
4. Ҳар хил ўстириш шароитида юқори ҳосилдорлик ва кўп самара келтирадиган навларни ажратиш ва уларни ишлаб чиқаришга жорий этиш.

Ушбу вазифаларни бажариш учун дала тажрибалари Самарқанд вилоятининг Булунғур туманидаги Бахтиёр Ҳайитов фермер хўжалиги, Оқдорё туманидаги СамҚХИ ўқув тажриба хўжалигида ва ургут туманининг тоғ олди минтақасида Баҳрин фермер хўжалигининг анғизли ерларида дала тажрибалари ўтказилди.

Тажриба объекти сифатида мойли кунгабоқарнинг Жаҳонгир, СамҚХИ 20-80 ва Родник Навларининг биринчи репродукция уруғларидан фойдаланилди. Барча ўстириш шароитларида уруғ 10-июль муддатида экилган. Пайкалчалар тўрт қаторли қатор ораси 70см узунлиги 20 метр, пайкалчалар майдони 56 метр кавдрат. Пайкалчалар уч қайтариқли ва бир ярусда жойлаштирилди.

Экиш схемаси 70x25 см схемада экилган , гектарига 57.5 минг туп ўсимлик режалаштирилган. Дала тажрибаси ва лабораторияда куйидаги кузатишлар ва тахлиллар куйидаги услубларда олиб борилди:

5. Fenologik ko'zaticshlar- ekish muddati, maysalash, savatcha hosil qilish, gullash va pishish fazalari (fenologik ko'zaticsh jadvali asosida) kuzaticshlar olib borildi. O'zPITI va O'zRUITI usullarida
6. Biometrik o'lchashlar: - o'suv davri oxirida o'simlik bo'yi chizg'ich yordamida, barglar soni, barg uzunligi va eni, o'lchash va sanash orqali (VNIIMK) Butun Rossiya moyli ekinlar ITI usulida.
7. Barg yuzasining sathi: Gubenko jadvali asosida (VNIIMK) Butun Rossiya moyli ekinlar ITI usulida
8. Savatcha yuzasining shakli (botiq, qavariq, tekis) vizual usulda aniqlanadi.
9. Mahsuldorlik ko'rsatkichlari: - 1 to'p o'simlik hosil, savatcha diametri, 1ta savatchadagi jami, mazi to'q va mag'zi puch urug'lar miqdori, 1000 ta urug' vazni, urug' naturasi (VNIIMK) Butun Rossiya moyli ekinlar ITI usulida.

10. Kungaboqarning kasalliklarga chidamliligi paykalchalaridagi o'simliklar soniga nisbatan % hisobida aniqlanib, 5 ballik tizimda quyidagicha baholanadi. Kasallangan o'simliklar bo'lmasa 1 ball - kasallangan o'simliklar yo'q; 2 ball – 1-25 % o'simliklar kasallangan; 3 ball – 26-50 % o'simliklar kasallangan; 4 ball – 51-75 % o'simliklar kasallangan; 5 ball – 75-100 % o'simliklar kasallangan. M. Amanova, A. Rustamov ( 2013)O'zO'ITI (2010)va Butun Rossiya moyli ekinlar ITI (1999) uslublari asosida baholanadi.
11. Hosildorlik paykalchadagi hosil aloxida-aloxida yig'ishtirib olish va tarozida tortib o'lchash va maydon hisobiga aylantirish yo'li bilan aniqlandi.
12. Hosilning sifati: - hosilning urug' qismi va tovar qismi hamda urug'dagi moy miqdorini aniqlash. (VNIIMK) Butun Rossiya moyli ekinlar ITI usulida
13. Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari:- bir gektarga sarflangan umumiy xarajatlar, bir sentner mahsulot tannarxi, bir gektardan shartli sof daromad, rentabellik darajasi umum qabul qilingan usullarda.
14. Hosildorlik ma'lumotlarini dispersion statistik tahlil usulda hisoblash: B.A. Dospexov bo'yicha (1989)

### **3.2. Дала тажрибаси ўтказилган агротехник ва уруғчилик ишлари.**

Дала тажрибаси сифатида бошоқли дон экинлардан бўшаган ер танланди. Ёзда кузги буғдой йиғиштирилиши биланоқ ер 35 см чуқурликда ҳайдалди. Дала тажриба майдонига 10 тонна митқдорида чириган гўнг солинди ва кунгабоқар учун қўлланиладиган маъданли ўғитлар йиллик меъёри (азот 200, фосфор 150 ва калий 200 кг/га) нинг фосфорли ва калийли тўлиғича қўлланилди. Ер чизелланиб мола тортилди ва қатор ораси 70 см ҳолатда эгатлар олинди. Эгат тортиш билан бирга азотли ўғитлар йиллик меъёрининг 30 фоиз қисми (60 кг/га соф ҳолда) берилди. Уруғ экиш олдида ун шудринг, сохта ун шудринг, кўнғир занг ва фузариоз касалликларининг олдини олиш мақсадида Раксил препарати билан (тоннасига 2,5 кг/га меъёрида) ишлов берилди.

Уруғлар 10-июлда қўлда ўсимлик ораси 70x25 схемада 5-6 см. чуқурликда экиди. Экиш учун қўлда тайёрланган махсус маркер тахтачадан фойдаланилди. Тахтачанинг ҳар 25 см. белгиси рўпарасидан уруғлар қадалиб чиқилди. Уруғлар экилгач эгатларга сув таралди. Қадалаган уруғлар 7 кунда униб чиқиш кузатилди. Майсалар тўлиқ униб чиққандан сўнг ўсимликда 1 та жуфт барглар ҳосил қилиш даврида ягоналаш ўтказилди. Унда битта уяда битта ўсимлик қолдирилди. Савтча ҳосил бўлиш фазаси бошланиши олдида азотли ўғитлар йиллик меъёрининг 30 фоизи (гектарига 60 кг) қўлланилиб ўсув даврида биринчи суғориш ўтказилди. Ер топга келиши билан 12 см чуқурликда иккинчи култивация ўтказилди. Гуллаш фазаси бошланиши олдида азотли ўғитлар йиллик меъёрининг қолган 40 фоизини (гектарига 80 кг) бериди ва иккинчи марта эгатларга сув таралди. Дала тажрибасида бутун ўсув даврида парваришlash ишлари билан бир қаторда кузатишлар, биометрик ўлчовлар, танлаш, саралаш ва баҳолашлар ўтказилди. Ҳосил икки фазали усулда: биринчиси саватчаларнинг орқа

томони 90 фоиз сариқ тусга киргандан сўнг, саватчалар поядан 15-20 см узунликда кесилиб пояда қолдирилди. Иккинчиси пояда қолдирилган саватчалар тўлиқ қуригандан сўнг саватчалар йиғиштирилиб уруғлари ажратиб олинди.

## IV. ТАДҚИҚОТЛАР НАТИЖАЛАРИ

### 4.1. Турли шароитда анғизли ерда экилган кунгабоқар навларининг ўсиши ва ривожланиши.

Дала тажрибасида ўрганилаётган Турли шароитда анғизли ерда экилган кунгабоқар навларининг ўсиши ва ривожланиши ўрганиш учун навлар бўйича пайкалчалардаги танланган 20 тадан типик ўсимликлар бўйича фенологик кузатишлар ва биометрик ўлчамлар ўтказилди.

#### 4.1.1. Фенологик кузатишлар натижалари.

Ўзбекистон шароитида вегетация даврининг давомийлиги катта аҳамиятга эга, чунки Республикамиз шароитида бир йилда самарали ҳарорат 3400-3600 етади. Кунгабоқарнинг навлари ва дурагайлари бир йилда икки ҳосил олиш имкониятлари мавжуд. Академик соҳасининг атоқли селекционери, В.С.Пустовойт (1973) фикрича кунгабоқар жуда кўп экиладиган Россиянинг шароити учун бу давр 92 – 95 кун бўлса қулай. Жуда эрта пишар навлар селекцияси маҳсулдорликни пасайишига олиб келиши мумкин.

А.Б.Дяковнинг (1991) маълумотларига кўра вегетация даврини 12 – 15 кунга қисқариши ҳосилдорликни 20 – 30% га камайтирилишига олиб келади. Қулай шароитда ҳар бир кунда гектарига 30 кг гача мой тўпланади.

Юқори маҳсулдор эртапишар нав ва дурагайларнинг яратилиши ўсимликларни бир вақтда пишиши, физиологик пишишдан тўлиқ пишишгача қисқа даврли генотипларни танлаш ва саватчалари тезликда (қисқа даврда) қурийдиган ўсимликларни танлаш усуллари билан яратишга эришиш мумкин. Кунгабоқарнинг эффектив ҳароратининг пастки кўрсаткичи 5<sup>0</sup>С га тенг (биологик нол) бўлиб, униб чиқиш – шоналаш даврида 11 – 12<sup>0</sup>С, шоналаш – гуллашда 15 – 16<sup>0</sup>С ундан кейинги даврда эса ҳарорат 10 – 14<sup>0</sup>С қулай бўлиб ҳисобланади.

Вегетация даврининг давомийлигига қараб кунгабоқар навлари уч гуруҳга бўлинади:

Ўртапишар навлар – вегетация даври 92 – 132 кун. Бу гуруҳга

Айрим муаллифлар (Г.В.Гуляев, 1975 й) мойли кунгабоқар навларини қуйидаги гуруҳларга бўладилар:

– Ўта тезпишар навлар – 60 – 69 кун, тезпишар навлар – 70 – 79 кун, эртапишар навлар – 80 – 89 кун, ўртапишар навлар 90 – 99 кун, кечпишар навлар – 100 – 109 кун ва ўта кечпишар навлар 110 ва ундан кўп кун талаб қиладиган навлар.

Одатда тезпишар ва эрта пишар навлар ва дурагайлар уруғининг ҳосилдорлиги бўйича ўртапишар ва кечпишар навлар нисбатан пастрок бўлади. Аммо бу биологик қонуниятни ўзгартириш селекционерларнинг вазифасидир.

Биз дала тажрибаларида ўрганган маълумотлар кўрсатишича кунгабоқар навларининг саватча ҳосил бўлиш фазаси турли хил ўстириш шароитларида турли муддатларда содир бўлди. Жаҳонгир навига нисбатан родник нави 7 кун СамҚХИ-20-80 навида эса Жаҳонгир навига нисбатан 1-2 кун олдин содир бўлиши аниқланди. Гуллаш фазаси навларга ва ўстириш шароитларига боғлиқ ҳолда 1-сентябрьдан 13- сентябрьгача бўлиши, пишиш фазаси эса 3-октябрьдан 13- октябрьгача содир бўлиши кузатилди. Ўсув даври давомийлиги навларга ва ўстириш шароитларига боғлиқ ҳолда 77-91 кунни ташкил этди.

Қисқача хулоса қилинганда, кунгабоқар навлари ҳар хил тупроқ-иқлим шароитларида ўстиришга боғлиқ ҳолда ривожланиш фазалари турли муддатларда содир бўлади.

## Фенологик кузатишлар натижалари

№	Ўстириш шароитлари	Навларнинг номланиши	Ривожланиш фазаларнинг содир булиши									Ўсув даври
			Эжил-ган кун	Униб чиқиши		Саватча ҳосил булиш		Гуллаш		Пишиш		
				Бош.	тул.	Бош.	тул	Бош	тулиқ	Бош	тул	
1	2	3	4	6	7	8	9	10	11	12	13	14
1	Булунғур тумани Б.Ҳайитов ф/х	1 Жаҳонгир	10.07	13.07	17.07	23.08	28.08	10.09	14.09	8.10	14.10	87
		2 СамҚХИ 20-80	10.07	13.07	17.07	22.08	27.08	9.09	13.09	6.10	10.10	83
		3 Родник	10.07	12.07	17.07	16.08	21.08	1.09	5.09	30.10	4.10	77
2	Оқдарё тумани СамҚХИ ўқув тажриба хўжалиги	1 Жаҳонгир	10.07	13.07	17.07	24.08	29.08	11.09	15.09	12.10	16.10	89
		2 СамҚХИ 20-80	10.07	13.07	17.07	23.08	28.08	10.09	14.09	8.10	12.10	85
		3 Родник	10.07	12.07	17.07	17.08	23.08	2.09	6.09	2.10	6.10	79
3	Ургун тумани Баҳрин ф/х	1 Жаҳонгир	10.07	13.07	17.07	26.08	1.09	13.09	17.09	13.10	18.10	91
		2 СамҚХИ 20-80	10.07	13.07	17.07	24.08	31.08	12.09	16.09	9.10	14.10	88
		3 Родник	10.07	12.07	17.07	19.08	25.08	4.09	8.09	3.10	8.10	81

#### 4.1.2. Ҳар хил ўстириш шaroитларида кунгабоқар навлари ўсув органларининг шаклланиши

Кунгабоқар навлари ва дурагайларининг ўсув органларининг шаклланишини ўрганиш ишлаб чиқаришда муҳим аҳамиятга эга. Ўсув қисмлари кўп шаклланадиган баланд пояли ва сербарг ВНИИМК – 89-31 типдаги навларни ўстиришда биринчидан техник воситалар билан ишлов бериш қийинчилик тўғрисида, иккинчидан баланд пояли навлар ва дурагайлар ҳосили пишиш фазаси даврида ётиб қолиш хавфи тўғрисида. Луков М. К. (2007)

#### 4-жадвал

#### Ҳар хил ўстириш шaroитларида экилган кункунгабоқар навларининг ўсиш ривожланиши

